

**INSULT VA PARODONT KASALLIKLARI O'RTASIDAGI
BOG'LIQLIK**

Atajonov Hasanboy Odilbek o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Stomatologiya kafedrasи

I-kurs magistranti.

Anotatsiya. Ushbu maqolada insult va parodont kasalliklari o'rtasidagi bog'lilik so'nggi yillarda ko'plab ilmiy tadqiqotlar markazida turibdi. Parodont kasalliklari — bu tish atrofidagi to'qimalarning surunkali yallig'lanishi bo'lib, u organizmda sistematik yallig'lanish jarayonlarini keltirib chiqaradi. Bu jarayonlar esa insult xavfini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rilmogda. Maqolada parodont kasalliklari va insult o'rtasidagi patofiziologik mexanizmlar, yallig'lanish mediatorlari roli, epidemiologik tadqiqotlar natijalari, shuningdek, profilaktika va davolash yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, parodont kasalliklarini o'z vaqtida davolash insult xavfini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Ushbu maqola tibbiyot va stomatologiya sohasidagi mutaxassislar, shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi muassasalar uchun foydali bo'lishi maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Insult, parodont kasalliklari, yallig'lanish, havf omillari, epidemiologiya, patofiziologiya, profilaktika, stomatologiya.

Hozirgi kunda insult butun dunyo bo'yicha o'lim va nogironlikka olib keluvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu holatga olib keluvchi xavf omillari orasida arterial gipertenziya, qandli diabet, giperxolesterinemiya, tamaki mahsulotlaridan foydalanish va surunkali yallig'lanish jarayonlari muhim o'rin tutadi. Yaqinda stomatologiya hamda kardiologiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida, parodont kasalliklari bilan insult rivojlanishi o'rtasida bevosita aloqadorlik mavjudligi aniqlanmoqda.

Parodont kasalliklari — bu tish atrofidagi yumshoq va qattiq to'qimalarning surunkali yallig'lanishi bilan kechuvchi holat bo'lib, u nafaqat lokal, balki umumiy

yallig'lanishga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda, bu turdag'i kasalliklarni insult xavfi bilan bog'liq tarzda o'rganish, ularning oldini olish va davolash masalalariga jiddiy yondashish zarurati tug'iladi.

Parodont kasalliklari og'iz bo'shlig'ida joylashgan bakteriyalarning muvozanatining buzilishi natijasida yuzaga keladigan yallig'lanishli va infektion kasalliklardir. Ular tishni ushlab turuvchi suyak va to'qimalarning yemirilishiga olib kelib, tishlarning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Bu kasalliklarda yallig'lanish mediatorlari — sitokinlar, interleykinlar, hamda tumor nekrozi omili (TNF- α) faoliyati keskin kuchayadi, bu esa butun organizmda yallig'lanish holatining yuzaga kelishiga turtki beradi va qon tomir tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Insult esa miya qon aylanishining to'satdan buzilishi natijasida paydo bo'ladigan og'ir nevrologik holat bo'lib, u ikki shaklda — ishemik (qon oqimining to'xtashi yoki chekshanishi) va gemorragik (qon tomirlarining yorilishi) tarzida namoyon bo'ladi. Uni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar qatoriga arterial bosimning oshishi, qandli diabet, noto'g'ri hayot tarzi, yuqori xolesterin miqdori va surunkali yallig'lanish holatlari kiradi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, parodont kasalliklari ham insult xavfini oshiruvchi omil sifatida tan olinmoqda.

Ishemik insult holatlarida qon oqimining to'xtashi emboliya yoki tromboz bilan bog'liq bo'ladi. Emboliya — bu boshqa joyda shakllangan qon quyqalari yoki yog' zarralarining qon oqimi orqali miya tomirlarigacha yetib borib ularni to'sib qo'yishidir. Tromboz esa qon tomirlarining ichida bevosa hosl bo'lgan tiqinlar bilan bog'liq. Boshqa bir turi — gemorragik insult esa qon tomirlarining yorilishi bilan yuzaga keladi. Bu esa gipertonik kasalliklar, qon tomirlarining tug'ma nuqsonlari (masalan, tomir devorlarining zaifligi), anevrizmalar yoki og'ir bosh miya jarohatlari natijasida sodir bo'ladi.

Insult xavfini oshiruvchi asosiy omillar quydagilardan iborat:

1. Yosh omili: Inson yoshi ulg'aygani sari qon tomirlari elastikligini yo'qotadi, aterosklerotik o'zgarishlar kuchayadi va surunkali kasalliklar (masalan, gipertoniya, diabet) miya qon aylanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada insult rivojlanish xavfi ortadi.

2. Dori vositalarining ta'siri: Ba'zi dorilar, ayniqsa uzoq muddat qo'llanganda, yurak-qon tomir tizimiga nojo'ya ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, estrogen gormonini o'z ichiga olgan og'zaki kontratseptiv vositalar qonning ivuvchanligini oshiradi va qon tomirlarida tiqin hosil bo'lishi ehtimolini kuchaytiradi. Bu holat esa ishemik insultga olib kelishi mumkin.

3. Arterial gipertoniya: Yuqori qon bosimi insultning eng asosiy xavf omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa homiladorlik davrida yoki kontratseptiv vositalardan foydalanayotgan ayollar uchun bu omil alohida e'tibor talab qiladi. Gipertoniya qon tomir devorlariga bosimni oshirib, ularning yorilishiga sabab bo'lishi mumkin.

4. Nosog'lom turmush tarzi (chekish va alkogol): Sigaret chekishi qon tomirlarining torayishiga, qattiqlashishiga va yallig'lanishiga olib keladi. Alkogol esa qon bosimini beqarorlashtirib, insultga olib keluvchi xavfli holatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa chekish va spirtli ichimliklarni birgalikda iste'mol qilish insult xavfini bir necha barobar oshiradi.

5. Surunkali kasalliklar: Qandli diabet, Fabri kasalligi, periferik tomirlar kasalligi, uyqu arteriyasining stenozi, yurak ritmining buzilishi va boshqa yurak-qon tomir kasalliklari insultga olib kelishi mumkin. Diabet bilan og'rigan odamlarda qon tomirlarning ichki qavati tez-tez shikastlanadi, bu esa tromblarning paydo bo'lish xavfini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, ayrim stomatologik holatlar, masalan, parodont kasalliklari ham sistemik yallig'lanish orqali insult xavfini oshirishi mumkin. Shuning uchun bu kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash muhim hisoblanadi.

Parodont kasalliklarida organizmda yallig'lanish mediatorlari ishlab chiqarilishi ortadi. Bu mediatorlar qon aylanish tizimiga tushib, endoteliya hujayralarining shikastlanishiga olib keladi, ateroskleroz jarayonini kuchaytiradi. Ateroskleroz esa insultning asosiy sabablaridan biridir. Bundan tashqari, parodont kasalliklarida paydo bo'ladigan bakteriyalar va ularning toksinlari qon oqimi orqali miya qon tomirlariga yetib, yallig'lanish jarayonlarini kuchaytirishi mumkin.

Parodont kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash va davolash insult xavfini

kamaytirish uchun muhimdir. Parodontologik parvarish, muntazam tish tozalash, og'iz gigienasini yaxshilash, bakterial infektsiyani bartaraf etish yallig'lanishni kamaytiradi va shu bilan insult xavfini pasaytiradi. Bundan tashqari, insult xavfini kamaytirish uchun umumiy sog'lom turmush tarziga rioya qilish – to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, tamaki chekishni tashlash ham muhim omillardir.¹

Xulosa qilib aytganda, parodont kasalliklari va insult o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy tibbiyotda katta e'tibor qaratilayotgan masaladir. Surunkali yallig'lanish jarayonlari, bakterial toksinlar va ularning qon tomir tizimiga ta'siri parodont kasalliklarini insult xavfi bilan bevosita bog'lashga imkon beradi. Shuning uchun insult xavfini kamaytirish uchun parodont kasalliklarini erta aniqlash va samarali davolash zarur. Bu esa tibbiyot va stomatologiya sohalarining integratsiyalashgan yondashuvini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tonetti, M.S., Van Dyke, T.E. (2013). Periodontitis and atherosclerotic cardiovascular disease: Consensus report of the Joint EFP/AAP Workshop on Periodontitis and Systemic Diseases. *Journal of Clinical Periodontology*, 40(S14), S24-S29.
2. Noble, J., et al. (2015). Periodontal disease and stroke: A systematic review and meta-analysis. *Journal of Stroke and Cerebrovascular Diseases*, 24(6), 1222-1232.
3. Sanz, M., et al. (2020). Periodontitis and cardiovascular diseases: Consensus report. *Journal of Clinical Periodontology*, 47(3), 268-288.

¹ Sanz, M., et al. (2020). Periodontitis and cardiovascular diseases: Consensus report. *Journal of Clinical Periodontology*, 47(3), 268-288.